

DOI: 10.5281/zenodo.15658950

Link: <https://zenodo.org/records/15658950>

## MAHALLALARDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY IQTISODIY AHAMIYATI

*Toshtemirova Zilola Madaminjonovna*

*“University of Economics and Pedagogy” NOTM,*

*“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi .*

*Tel: +998991000624*

*[toshtemirova.zilolaxon@gmail.com](mailto:toshtemirova.zilolaxon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri bo‘lib, aholi bandligini ta‘minlash, turmush darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Mahallada oilaviy biznesning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy barqarorlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Oilaviy bizneslar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa mahallalarda, ular mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda asosiy omil hisoblanadi. Oilaviy biznesni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish bu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. Mazkur maqolada mahallada oilaviy biznesni tashkil etish va rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning turlari, rivojlanish holati, davlat tomonidan ko‘rilgan qo‘llab-quvvatlash choralari va istiqbollari tahlil qilingan. Mahallada oilaviy biznesni rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Oilaviy biznes, innovatsion yondashuv, marketing strategiyalari, raqamlashtirish, “yashil iqtisodiyot, ijtimoiy barqarorlik, mulkdorlar, strategik qarorlar, eksport kompaniyalari, raqamli platforma.

**Kirish.** Hozirgi global iqtisodiy sharoitda aholi bandligini ta‘minlash, daromad manbalarini ko‘paytirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan oilaviy biznesni rivojlantirish, xususan, uni mahalla darajasida tashkil etish aholining turmush darajasini oshirishda, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda oilaviy biznes muhim o‘rin tutadi. Mahallada oilaviy biznesning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy barqarorlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Oilaviy bizneslar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa mahallalarda, ular mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda asosiy omil hisoblanadi. O‘zbekistonda oilaviy bizneslar umumiy kichik va o‘rta biznes sektorida 65-70%ni tashkil etib, mamlakatning barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo‘shmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, jumladan, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Oilaviy biznes nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, oilaviy mustahkamlik va aholi bandligini oshirish kabi ijobiy natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

**Asosiy qism.** O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida “Oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga

oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin"—deb belgilangan. [1]

Oilaviy biznes – bu tadbirkorlikning o'ziga xos shakli bo'lib, u muayyan oila a'zolari tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi. Ushbu shakldagi biznes nafaqat iqtisodiy manfaat keltiradi, balki ijtimoiy barqarorlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Oilaviy biznes — bu mulkdorlarining katta qismi yoki barchasi bir oilaga mansub bo'lgan, faoliyat yuritish va boshqaruv ishlarini ham aynan shu oila a'zolari amalga oshiradigan tadbirkorlik turidir.

Oilaviy biznesda innovatsiya — bu yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, marketing strategiyalari, raqamlashtirish, "yashil iqtisodiyot" elementlari kabi yangi yechimlarni qo'llashni nazarda tutadi. Yozuvchi J. Schumpeter (1942) innovatsiyani "iqtisodiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi asosiy omil" sifatida ta'riflagan. Oilaviy biznes iqtisodiyotda uzoq muddatli barqarorlik, ishonchli boshqaruv va mulkiy merosni saqlab qolish imkonini beruvchi tadbirkorlik shakli hisoblanadi.

Oilaviy biznesning mahalladagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

*1. Savdo va xizmat ko'rsatish*

Kichik do'konlar (ozuq-ovqat, maishiy tovarlar, xo'jalik mahsulotlari).

Shaxsiy ustaxonalar (tikuvchilik, taglash, soch tarash, poyabzal ta'miri).

Tez tayyor taomlar (somsa, qurut, non tayyorlash).

*2. Qishloq xo'jaligi faoliyati*

Tomorqa xo'jaligi (sabzavotchilik, mevazorlar).

Parrandachilik yoki qoramol boqish.

Asalarichilik va uning mahsulotlarini sotish.

*3. Qo'l mehnati va hunarmandchilik*

Gilam to'qish, chevarlik, zargarlik.

Kulolchilik, temirchilik, cho'yan buyumlar tayyorlash.

Milliy kiyimlar va suvenirlar ishlab chiqarish.

*4. Xizmatlar ko'rsatish*

Avtomoyka, avtota'mirlash.

Foto va chop etish xizmatlari.

Buxgalteriya, ta'lim, to'y marosimlariga xizmatlar.

**Oilaviy biznesning asosiy xususiyatlari:**

*Mulkchilik;* Odatda korxonada aksiyalari yoki mulki a'zolar o'rtasida taqsimlangan bo'ladi. Ushbu mulkcha to'liq oilaga tegishli bo'ladi.

*Boshqaruv;* Boshqaruv vazifalari ham oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Qaror qabul qilish jarayoni ko'pincha norasmiy asosda, ya'ni shaxsiy ishonch va oilaviy munosabatlarga tayanadi.

*Merosiylik:* Biznesni keyingi avlodga o'tkazish oilaviy biznesda muhim vazifa hisoblanadi. Bu biznesning uzluksizligi va barqarorligini ta'minlaydi.

*Oilaviy qadriyatlar ta'siri:* Korxonada madaniyati, missiyasi va strategik qarorlar oilaviy an'analar va qadriyatlar ta'sirida shakllanadi.

Oilaviy biznesning turlari mavjud. Masalan, do‘kon, nonvoyxona, ustaxona kabi bizneslar. O‘rta va katta oilaviy biznes korxonalar, zavodlar, eksport kompaniyalari, bir necha avloddan iborat boshqaruv.

Dunyo miqyosida oilaviy biznes juda keng tarqalgan. Masalan:

Walmart (AQSh) — Dunyodagi eng yirik oilaviy kompaniyalardan biri, Walton oilasiga tegishli.

BMW (Germaniya) — Quandt oilasi tomonidan nazorat qilinadi.

Tata Group (Hindiston.) — Tata oilasi tomonidan asos solingan va boshqariladi.

Umumiy dunyo statistikasiga ko‘ra barcha xususiy bizneslarning 70% ga yaqini oilaviy hisoblanadi. Barcha ish o‘rinlarining 60–80% i oilaviy biznes hissasiga to‘g‘ri keladi.

### **Oilaviy biznesning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:**

- Umumiy maqsadlar va qadriyatlar mavjud;
- mehnat resurslarining ichki imkoniyatlarini to‘liq safarbar etish;
- xarajatlarni optimallashtirish;
- oila a‘zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch va mas‘uliyat hissini kuchaytirish;
- mahalliy bozor ehtiyojlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritish imkoni.;
- Uzoq muddatli rejalashtirish osonroq.

O‘zbekistonning turli shahar va viloyatlaridagi mahallalarda oilaviy bizneslarning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirini o‘rganish uchun olib borildi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari, "Hunarmand" uyushmasi hamda joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining rasmiy ma‘lumotlari tahlil qilindi/ Shuningdek, oilaviy tadbirkorlar bilan suhbatlar va anketa so‘rovlari o‘tkazildi.

**Natijalar:** O‘zbekiston Respublikasida 2018- yildan boshlab oilaviy biznesga katta e‘tibor qaratilib, oilaviy biznesni rivojlantirish maqsadida bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Har bir oila — tadbirkor" dasturi: bu dastur orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni kamaytirish maqsad qilingan. Mikro kreditlar berish tizimi, imtiyozli soliq siyosati, tadbirkorlik kurslari kabi mexanizmlar orqali aholi biznesga jalb qilinmoqda.

Oilaviy do‘konlar, ustaxonalar, fermer xo‘jaliklari yaratildi. Ayollar va yoshlar ishtirokidagi bizneslar kengaydi. «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida 2018–2023 yillarda 2,5 mln ga yaqin oila a‘zolariga mikro kreditlar ajratilgan. Moliya vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda 8,1 trln so‘m mikro kreditlar ajratilgan. [2]

2023–2025 yillar uchun mo‘ljallangan "Yo‘l xaritasi"da mahallalarda oilaviy biznesni tashkil etish uchun maxsus uskunalar ajratish, savdo nuqtalarini yaratish va mahsulotlarni onlayn bozorga chiqarishga yordam berish ko‘zda tutilgan.

"Mahalla loyihasi" dasturi: ushbu dastur doirasida mahallalarda kichik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mikro loyihalar amalga oshirilmoqda. 2025 yilda ushbu dasturga 1 milliard dollar ajratilgan va 5,2 million kishini ish bilan ta‘minlash rejalashtirilgan.

"Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida 2024 yilning birinchi yarmida O‘zbekistonda 74,420 nafar xotin-qizga 1 trillion 230 milliard so‘m miqdorida



imtiyozli kreditlar berilgan. Bu kreditlar asosan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga, ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltirilgan. [3]

2025 yilda davlat banklari orqali O‘zbekiston hukumati oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 9 ta davlat bankiga 1 milliard AQSH dollari miqdorida imtiyozli kreditlar jalb qilish tavsiyasini bergan. Bu kreditlar asosan kichik biznes va oilaviy korxonalarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. [4]

O‘zbekistonda oilaviy biznes subyektlari 800 mingdan ortiq bo‘lib, ular kichik va o‘rta biznesning 65-70%ini tashkil qiladi. Bu bizneslar soliq tushumlarining 30%dan ko‘prog‘ini ta‘minlaydi va mahalliy budjetga hissa qo‘shadi. Ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi: taxminan 1,5 million odam oilaviy bizneslarda faoliyat yuritadi. Mahallalarda bu bizneslar mahalliy iste‘molga xizmat qilgani bilan, infratuzilmani ham rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy ahamiyati shundaki oilaviy biznes ayollar va yoshlarning bandligini oshiradi: ayollar ishtirok etadigan tadbirkorlik 45%ga yaqin. Jamiyatda o‘zaro yordam va hamjihatlik muhiti mustahkamlanadi. Mahallalarda ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy bizneslar ko‘pincha mahalliy resurslardan foydalanadi, bu esa mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish mahalliy aholining iqtisodiy holatini yaxshilashga olib keladi. Oilaviy bizneslar oila a‘zolarining daromadini oshirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, oilaning ijtimoiy darajasini yaxshilashga va ularning hayot sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oilaviy bizneslar, xususan, mahallalarda rivojlanayotgan kichik xo‘jalik subyektlari, joylarda aholining daromadini oshirish va kambag‘allikni kamaytirishda muhim omildir. Mahallalarda faoliyat yuritadigan bunday bizneslar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qilib, mahalliy iqtisodiyotning organik rivojiga turtki beradi.

Oilaviy biznesning mahalla uchun ahamiyati juda yuqori bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ham katta o‘rin tutadi. Oilaviy biznesning mahallaga ta‘siri va qanday foyda keltirishini yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rib chiqishimiz mumkin.

№	Ijobiy tomonlari	Ijtimoiy iqtisodiy natijalari
1	Iqtisodiy ahamiyati ish o‘rinlari yaratiladi	Oilaviy bizneslar mahallada ishsizlik darajasini kamaytiradi. Ayollar, yoshlar va keksalar ham ish bilan ta‘minlanadi.
2	Daromad manbai	Oilalar o‘z iqtisodiy barqarorligini ta‘minlaydi, ehtiyoj uchun boshqalarga qaram bo‘lmaydi.
3	Mahallaning rivojlanishi	Iqtisodiy faoliyat orqali infrastruktura rivojlanadi. Mahallada ishlab chiqarilgan mahsulotlar mahalliy bozorda sotilib, pul aylanmasi shu yerda qoladi
4	Ijtimoiy birdamlik	Oila a‘zolari birgalikda mehnat qilib, oilaviy va mahallaviy birdamlik mustahkamlanadi. Qo‘shnilar hamkorlikda ish yuritishi mumkin.
5	Yoshlarni tarbiyalash	Yoshlar mehnatga o‘rgatiladi, ishbilarmonlik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bo‘sh vaqt samarali o‘tadi, hech kim bema‘ni ishlarga berilib ketmaydi.

6	Ayollar uchun imkoniyatlar	Ko'pincha ayollar xonadonda o'tirib ham biznes yuritish imkoniga ega bo'ladi (tikuvchilik, taom tayyorlash, kosmetika sotish va h.k.).
7	Madaniy va ma'naviy ahamiyat	Milliy qadriyatlarni saqlanadi, hunarmandchilik, milliy taomlar, kiyimlar orqali xalq an'analari yashaydi. Yosh avlod milliy merosga hurmat bilan qaraydi.
8	O'rnak bo'lish	Boshqalar ham shijoatli oilalardan ilhomlanib, o'z biznesini boshlaydi. Mahallada tadbirkorlik muhiti shakllanadi.
9	Muhit va tartib	Mahalladagi farovonlik oshadi. Faol oilalar orqali mahallada obodonchilik, tozalik, xavfsizlikka e'tibor ortadi. Har kim o'z mas'uliyatini his qiladi.

Bu bilan birga, hozirgi sharoitda bunday bizneslarning barqaror rivojlanishi uchun qo'shimcha institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish zarur. Ayollar va yoshlar uchun alohida subsidiyalar, onlayn savdo platformalariga chiqish uchun texnik yordam dasturlari va soliq imtiyozlari foydali bo'ladi.

*Shu bilan birga, oilaviy biznesni tashkil etishda qator muammolar ham mavjud:*

- moliyaviy va huquqiy savodxonlikning past darajada ekanligi;
- Meros va mulkni taqsimlashda nizolar kelib chiqishi ehtimoli;
- Oilaviy bizneslarning aksariyati hali ham an'anaviy shaklda faoliyat yuritadi.
- marketing va raqobatdosh mahsulot yaratish bo'yicha yetarli tajribaning yo'qligi;

-ayrim hollarda mahalliy hokimiyat va moliya tashkilotlari bilan bog'liq byurokratik to'siqlar.

-Malaka yetishmasligi va raqobatbardosh bozorlarga chiqishda marketing va texnologiyalardan foydalanishda tajribaning kamligi.

-Bozorga chiqish va marketingdagi to'siqlar.

-Qonunchilikdagi murakkabliklar va xabardorlik darajasining pastligi.

-Innovatsiya, raqamlashtirish va bozor talablariga moslashish borasida muayyan muammolar mavjud.

**Xulosa.** O'zbekistonda oilaviy biznesni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mahallada oilaviy biznesni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Davlat tomonidan ko'rilgan qo'llab-quvvatlash choralari va dasturlar oilaviy biznesning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ammo innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun bilimlar, infratuzilma va moliyaviy qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahallalardagi oilaviy bizneslar raqobatbardoshligini oshiradi va barqarorlikni ta'minlaydi. Bu borada davlat, jamoat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Oilaviy biznes — jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biri. U rivojlangan mamlakatlar tajribasida muhim rol o'ynasa, O'zbekistonda ham uning salohiyatini to'liq ishga solish uchun zamonaviy yondashuvlar va davlat qo'llab-quvvatlovi zarur.

Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish orqali oilaviy biznesning samaradorligini oshirish mumkin. Bu sohani rivojlantirish uchun quyidagi takliflar dolzarbdir:

- Oilaviy biznesni tashkil etish bo‘yicha huquqiy va moliyaviy maslahat markazlarini har bir mahallada joriy etish;
- Ayollar va yoshlar uchun maxsus tadbirkorlik kurslarini kengaytirish;
- Oilaviy biznes mahsulotlari uchun onlayn platforma va savdo yarmarkalarini yo‘lga qo‘yish;
- Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bevosita amaliy ko‘mak berish tizimini kuchaytirish.
- Oilaviy bizneslarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida mikro kreditlash tizimida naqd mablag‘lar berishni ko‘paytirish.
- Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish orqali tadbirkorlarning faoliyatini yengillashtirish.

Mahallalarda oilaviy bizneslarni rivojlantirish ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash orqali mahalliy iqtisodiyot rivojlanadi, bandlik oshadi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi. Shu bois, davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlash va ishonchli infratuzilma yaratish zarur. Oilaviy bizneslar mahalliy iqtisodni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Ular mahalliy bozorda raqobatni oshiradi, bu esa mahsulotlar va xizmatlarning sifati va narxini yaxshilashga olib keladi. Daromadlarning oshishi oilalarning ta‘lim, tibbiy xizmatlar va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarga sarflash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Oilaviy bizneslarni rivojlantirish mahallada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular ish o‘rinlari yaratish, mahalliy resurslarni samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish orqali jamiyatni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

Shu bois, oilaviy bizneslarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun davlat va jamoatchilik tomonidan choralar ko‘rish zarur. Mahallalarda oilaviy bizneslarning rivojlanishi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va ijtimoiy muvozanatni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ularning soni, ta‘siri va imkoniyatlari ortmoqda, biroq ularning samarali faoliyatini ta‘minlash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi QONUNI Qonunchilik palatasi tomonidan 2012 yil 16 martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2012 yil 23 martda ma‘qullangan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, “Har bir oila — tadbirkor” dasturi, 2023.
3. Daryo.uz, 2024 yil 24 iyul
4. Gazeta.uz, 2024 yil 16 dekabr ([https://www.gazeta.uz/uz/2024/12/16/small-business/utm\\_source=chatgpt.com](https://www.gazeta.uz/uz/2024/12/16/small-business/utm_source=chatgpt.com))

5. Kuziyev, A. (2020). "Oilaviy biznes: ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati". Tadqiqot maqolasi.
6. Ismoilov, B. (2021). "Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda oilaviy bizneslarning roli". Ekonomika jurnali.
7. Tursunov, R. (2019). "Oilaviy tadbirkorlik: muammolar va yechimlar". Biznes tahlili.
8. Sharipov, D. (2022). "Oilaviy biznes: yangi tendensiyalar va strategik yo'nalishlar". Tadqiqot jurnali.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023-2024 ). [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni: "Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2022).
11. Biznesni rivojlantirish agentligi hisobotlari.
12. "Hunarmand" uyushmasi yillik tahlillari.